

Buxoro viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-oktabr holatiga Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni **2 099,0** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,5** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni **32,6** ming nafarni, vafot etganlar **7,0** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **25,6** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **10** kishini va viloyatimizdan xorijga ko'chib ketganlar soni **94** kishini, qayd etilgan nikohlar **9,8** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,8** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

2 099,0 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

32,6 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

7,0 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

10 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

94 *kishi*

Nikohlar soni

9,8 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

1,8 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Buxoro viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra **2 099,0** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **30,6** ming kishiga yoki **1,5** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **772,8** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,8%**), qishloq joylarda esa **1 326,2** ming kishi (**63,2%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 046,4** ming kishini (**49,9%**), erkaklar esa **1 052,6** ming kishini (**50,1%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 068,4	2 099,0	101,5
Buxoro sh.	299,0	304,0	101,7
Kogon sh.	65,3	66,0	101,1
<i>viloyatlar:</i>			
Olut	105,5	106,9	101,3
Buxoro	180,8	184,1	101,8
Vobkent	150,6	153,2	101,7
G'ijduvon	326,4	330,6	101,3
Kogon	85,8	87,5	102,0
Qorako'l	173,6	175,8	101,3
Qorovulbozor	20,3	20,6	101,5
Peshku	132,8	135,0	101,7
Romitan	152,7	154,8	101,4
Jondor	187,8	191,0	101,7
Shofirkon	187,8	189,5	100,9

Buxoro viloyatida 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **52,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,8** kishiga ortgan (2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **51,4** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **32,6** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,9** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,4** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **7,0** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan teng.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **32,6** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **16,8** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5%**), qiz bolalar soni **15,8** ming kishini (**48,5%**) va shahar joylarida **11,6** ming kishini (**35,6%**), qishloq joylarida **21,0** ming kishini (**64,4%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **7,0** ming kishini, shundan erkaklar **3,8** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **54,3%**), ayollar **3,2** ming kishini (**45,7%**) va shahar joylarida **2,9** ming kishini (**41,4%**), qishloq joylarida **4,1** ming kishini (**58,6%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **9,8** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,3** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1,8** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **9,8** ming birlikni, shundan shahar joylarida **3,9** ming birlikni (**39,8%**), qishloq joylarida **5,9** ming birlikni (**60,2%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **1,8** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,9** ming birlikni (**50,0%**), qishloq joylarida **0,9** ming birlikni (**50,0%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **8 258** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **8 248** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **10** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **11 852** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **11 758** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **94** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Buxoro viloyati	8 258	8 248	10	11 852	11 758	94
Buxoro sh.	3 143	3 138	5	2 778	2 770	8
Kogon sh.	456	456	0	525	525	0
<i>viloyatlar:</i>						
Olot	140	140	0	411	411	0
Buxoro	1 292	1 292	0	1 220	1 220	0
Vobkent	337	337	0	669	669	0
G'ijduvon	506	506	0	1 766	1 754	12
Kogon	707	705	2	660	660	0
Qorako'l	271	270	1	863	863	0
Qorovulbozor	325	325	0	243	211	32
Peshku	175	174	1	386	377	9
Romitan	233	233	0	486	457	29
Jondor	272	272	0	630	630	0
Shofirkon	401	400	1	1 215	1 211	4

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Dyemografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
Sh. Musayeva
65 223-83-37 (8070)

Manzil:
Buxoro viloyati
Buxoro shahri
S.Ayni ko'chasi 3-uy
